

O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2015 yil 25 sentabrdagi 06-06-6-3-sonli topshirig'ini ijro etish maqsadida hisobot davrida Respublikaning ko'mir sohasidagi ishlab chiqarish iqtisodiy faoliyat natijalari tahlil qilindi.

Hisobot davrida amaldagi narxlarda tovar mahsulotning hajmi 51,369 mlrd.so'mni tashkil etdi (prognozga nisbatan 97,6%), o'sish sur'atlari 133,9% ni, taqqoslanadigan narxlarda esa, tegishlicha 31,464 mlrd.so'mni (105,4%) va 92,2% ni tashkil etdi.

Ko'mir qazilishi bo'yicha prognoz 516,0 ming tonna bo'lsa, haqiqiy hajmi 521,3 ming tonnani tashkil etdi(101,0%, o'sish sur'ati 83,3%); "O'zbekko'mir" AJ bo'yicha - 491,2 ming tonna (101,1%, o'sish sur'ati 82,9%); «Shargunko'mir» AJ - 20,0 ming tonna (100,0%, o'sish sur'ati 151,4%); «Apartak» MChJ - 10,1 ming tonna (101,1%, o'sish sur'ati 49,3%).

Ko'mir sotilishi prognozi 509,4 ming tonna bo'lsa, haqiqiy hajm 525,6 ming tonnani tashkil etdi (103,2%, o'sish sur'ati 97,4%), shu jumladan "O'zbekko'mir" AJ bo'yicha - 495,9 ming tonna (103,4%, o'sish sur'ati 98,3%), «Shargunko'mir» AJ bo'yicha - 18,1 ming tonna (90,5%, o'sish sur'ati 112,1%), «Apartak» MChJ bo'yicha - 11,6 ming tonna (116,0%, o'sish sur'ati 62,2%).

Hisobot davrida foydali qazimalar yuzini ochish hajmi 3,0 mln.kub.metrni tashkil etdi (72,9%) o'sish sur'ati 118,3%;

Mahalliyashtirilgan mahsulot ishlab chiqarilishi 100,2% ga ta'minlandi, bunda o'sish sur'ati 116,6% ni tashkil etdi, 663,2 mln.so'mlik tovar mahsuloti ishlab chiqarilgan va sotilgan. 2016 – yil uchun rejalashtirilayotgan mahalliyashtirilgan mahsulot ishlab chiqarilishi 3,62 mlr. so'm va 100,5 o'sish sur'atini tashkil qiladi.

Yangi ishlar yaratish prognozi 54 ta bo'lsa, haqiqatda 59 ta yangi ish joyi yaratilgan. Shu jumladan investitsiya dasturi bo'yicha 22 ta, 12 ta sohani rivojlantirish bo'yicha, 18 ta mahalliyashtirish dasturi bo'yicha va 7 tasi kasanachilik bo'yicha.

2016 yil 3 oyi davomida ko'mir sohasi korxonalari O'zbekiston Respublikasi Hukumati belgilagan ishlab chiqarish topshirig'ini bajarish uchun zarur bo'lgan ishchi kadrlar va mutaxassislar bilan asosan ta'minlangan.

01.04.2016 yil holati bo'yicha ko'mir sohasida xodimlarning umumiy soni 6712 kishini tashkil etadi, shu jumladan "O'zbekko'mir" AJ da - 6712 kishi, «Shargunko'mir» AJ - 457 kishi.

Ko'mirni qazish va sotish jarayonini tezlashtirish maqsadida hozirgi paytda "O'zbekko'mir" AJ da 2014-2018 yillarda ishlab chiqarishni modernizatsiya qilish, uni yangilash, texnik va texnologik qayta qurollantirish dasturi qabul qilingan, u qazish hajmlarini 2 karra, qazima yuzini ochish hajmini 3 karra ko'paytirishni, ta'mir ishlari hajmini, ehtiyot qismlar xaridini keskin oshirishni talab etadi.

Ko'mir sohasi korxonalarining rivojlanishning asosiy yo'nalishlari quyidagicha: mehnat sharoitlarini yanada yaxshilash dasturini amalga oshirish, tog' ishlarini olib borishning xavfsizligini oshirish, ko'mir sohasida avariya va jarohatlanish darajasini qisqartirish, ishlab chiqarishga yangi zamonaviy texnologiyalarni joriy etish, ishlab chiqarishni modernizatsiya qilishga qaratilgan investitsiya loyihalarni amalga oshirish.

Sohada yangi ishlab chiqarish quvvatlarini yaratishni ta'minlovchi investitsiya quyilmalarining darajasini ushlab turish muhim vazifa hisoblanadi.

"O'zbekko'mir" AJ investitsiya faoliyati O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 17.11.2014 yildagi PQ-2264-sonli "O'zbekiston Respublikasining 2015 yilga investitsiya dasturi to'g'risida" Qarori bilan va O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 06.06.2014 yildagi 161-sonli "2013-2018 yillarda ko'mir sanoati korxonalarini modernizatsiya qilish, texnik va texnologik qayta qurollantirish Dasturini tasdiqlash va uning barqaror rivoji

to'g'risida"gi qarori bilan belgilangan, ularga muvofiq quyidagi investitsiya loyihalari amalga oshirilishi nazarda tutilgan:

1. "“Apartak” ochiq konini qurish” loyihasi. Loyiha maqsadi – ishlab chiqarish quvvatini yiliga 10 mln. tonna ko'mir qazishgacha oshirish hisoblanadi. Loyihani amalga oshirish muddati – 2016-2018 yillar.

2. "“Shargunko'mir”ni modernizatsiya qilish”. Loyiha maqsadi – ishlab chiqarish quvvatini yiliga 900 ming tonna ko'mir qazishgacha oshirish hisoblanadi. Loyihani amalga oshirish muddati – 2015-2018 yillar.

3. “Ma'naviy va jismoniy eskirgan jihozlarni yangilash (almashtirish)” loyihasi. Loyiha maqsadi – “Angren” ochiq konida qazimalar yuzasini ochish bo'yicha ishlarda kechikishni bartaraf qilish va ko'mir qazilishining belgilangan ko'rsatkichlariga erishish maqsadida eskirgan ochiq kon va tog'-transport texnika o'rniga yangi asosan texnologik va yordamchi jihozlarni xarid qilish hisoblanadi. Loyihani amalga oshirish muddati – 2015-2018 yillar.

4. ““O'zbekko'mir” AJ temir yo'l xo'jaligini modernizatsiya qilish” loyihasi. Loyiha maqsadi - qazimalar yuzasini ochish bo'yicha ishlar hajmlari bo'yicha va o'pirlilishlarni ortish bo'yicha kechikishni bartaraf qilish. Loyihani amalga oshirish muddati - 2015-2018 yillar.

5. ““O'zbekko'mir” AJ ishlab chiqarish quvvatlarini qo'llab-quvvatlash”. Loyiha maqsadi – qazimalar yuzasini ochish va ko'mir qazishning rejalashtirilgan hajmlarini bajarish uchun texnikaning ishlab chiqarish unumdorligini oshirish hisoblanadi. Loyihani amalga oshirish muddati – 2015-2018 yillar.

“Angren” ochiq koni texnik qayta qurollantirilishi faol o'tkazilmoqda, unga qazish va kon yuzasini ochish bo'yicha siklli-oqim texnologiyasi joriy etilmoqda, zamonaviy ilg'or texnologiyalar va yuqori unumli jihozlar asosida mavjud tog'-transport jihozlari yangilanmoqda, bunda ochiq konning ishlab chiqarish quvvati yiliga 6.4 million tonna ko'mirga yetkazilishi kerak.

O'zbekiston Respublikasi hukumati ishlab chiqarishga yangi zamonaviy texnologiyalar joriy tilishiga alohida e'tibor bermoqda, shuning uchun Ma'lumotlar uzatish korporativ tarmog'i (MUKT) va Markazlashtirilgan dispatcher nazoratining avtomatlashtirilgan axborot tizimi (MDNAAT) loyihalari O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 03.04.2014 yildagi 2158-sonli Qaroriga kiritilgan va “O'zbekko'mir” AJ tomonidan ijro etilgan. Mazkur loyihalar hisobiga bugungi kunning o'zida nafaqat ishlab chiqarish majmuasi takomillashtirilmoqda, balki barcha yangilik va innovatsiyalar kiritilishi jarayoni ustidan nazorat o'tkazilmoqda.

Ko'mir oluvchilarning yagona elektron bazasini yaratish bo'yicha ishlar olib borilmoqda, u kompaniyaning hududiy-distrib'yutor markazlarida iste'molchilarga xizmat ko'rsatish vaqtini qisqartirish imkoniyatini yaratadi. Mavsumiy davrlarda, avgustdan noyabrgacha ko'mir ajratilishi oxirgi mijozgacha amalga oshiriladi. Bayram va dam olish kunlari omborxonadan ko'mir ortilishi tashkillashtirilgan.

Aholini, budjet sohasi tashkilotlari va iqtisodning real sektori korxonalarini ko'mir bilan uzluksiz ta'minlash maqsadida, hamda ko'mirni sotish bo'yicha kechikishlarni so'ndirish maqsadida ko'mir va ko'mir briketlarini yetkazib berishning qoplovchi, tarmoq jadvallari ishlab chiqilgan va tasdiqlangan, ularga muvofiq budjet sohasi tashkilotlari joriy yilning 1 noyabrigacha, aholi esa, joriy yilning 1 dekabrigacha ko'mir va ko'mir briketlari bilan ta'minlanadi.